

## **INTERAKTIV TA'LIMDA PEDAGOG MAHORATI**

Olimova Dono Shokirovna

TTA Urganch filiali, O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi mudiri, p.f.n.

D. Qurbanboyev

TTA Urganch filiali 1-bosqich magistranti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola interaktiv ta'lism jarayonini tashkillashtirishda pedagog mahoratining roli haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ta'lism jarayoniga oid bo'lgan platformalar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metodika, ta'lism jarayoni, pedagogika, ta'lism platformalari, Google classroom, Moodle, Bamboozle.

### **Annotation:**

This article talks about the role of the pedagog's skills in organizing the interactive educational process. It also provides information about educational platforms.

**Keywords:** interactive methodology, educational process, pedagogy, educational platforms, Google classroom, Moodle, Bamboozle.

Ta'lism sohasida turli yangiliklar kirib kelishi natijasida o'qitish metodlarining innovatsion va interaktiv usullari ommalashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagি PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etishi [1] talabalarning mobilligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan muhim amallardan biri hisoblanadi.

Interaktiv o‘qitish talabalarga professional ta’lim berish jarayonida alohida o‘ringa ega. “Interaktiv” terminining ta’rifiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu termin Ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lib “interact” (“inter” – o‘zaro, “act” – ijob etish) “birgalikda, o‘zaro bajarish” ma’nosini beradi. Interaktiv ta’limda talaba yoki o‘quvchiga individual yondashuv orqali, uning shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda unga topshiriqlar beriladi. Bu jarayonni muvofiqlashtirish uchun hozirda OTMlarda hemis tizimi joriy etilgan bo‘lsa, o‘rta-maxsus ta’lim dargohlarida kundalik.com platformalari faoliyat yuritmoqda.

Interaktiv ta’lim – o‘quv jarayonini tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, uning mohiyati o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish, bilim, g‘oyalar, faoliyat usullari bilan almashish bo‘yicha birgalikdagi faoliyatidir [1]. Darslardagi interaktiv faoliyat o‘zaro tushunishga, o‘zaro ta’sirga, umumiyligi, ammo har bir ishtirokchi uchun muhim vazifalarni birgalikda hal qilishga olib keladigan dialog aloqasini tashkil etish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Interaktiv ta’limning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ❖ ta’lim va kognitiv motivatsiyani rag‘batlantirish;
- ❖ mustaqillik va faollikni rivojlantirish;
- ❖ tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- ❖ muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- ❖ o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi.

Interaktiv ta’limda talabaning ehtiyojlari inobatga olinadi, uning shaxsiy tajribasi, bilimlarni maqsadli ravishda moslashtirish amalga oshiriladi, hamkorlik, birgalikda yaratish orqali optimal natijaga erishiladi, mustaqillik va tanlash erkinligi talabaga o‘z faoliyatini tahlil qilish imkonini yaratadi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar sxemasi tubdan o‘zgarib bormoqda; talaba o‘qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotda o‘zini qulay his qiladi. O‘quv jarayonining yakuniy maqsadi va asosiy mazmunini saqlab qolgan holda, interaktiv ta’lim odatdagagi o‘qitish shakllarini o‘zaro tushunish va o‘zaro ta’sirga asoslangan dialogga o‘zgartiradi.

Pedagogikada bir nechta ta’lim modellari mavjud:

- passiv – o‘quvchi mashg‘ulotning “obyekti” (tinglash va qarash) vazifasini bajaradi;
- faol – o‘quvchi mashg‘ulotning “subyekti” vazifasini bajaradi (mustaqil ish, ijodiy topshiriqlar);



• interaktiv – o‘zaro ta’sir. Interfaol ta’lim modelidan foydalanish hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o‘yinlardan foydalanish, muammolarni birgalikda hal qilishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonidagi har qanday ishtirokchining yoki biron bir g‘oyaning ustunligi istisno qilinadi. O‘quvchi ta’sir obyektidan o‘zaro ta’sir subyektiga aylanadi, u o‘z shaxsiy yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi.

Pedagogning mahoratigina interaktiv ta’lim jarayonini yuzaga keltira oladi, ya’ni o‘qituvchi har bir talabasining mahorati, qiziqishlari va kompetensiyasidan kelib chiqqan holda topshiriqlar berishi zarur. Quyidagilar amallarni tashkillashtirish orqali pedagog interaktiv ta’lim jarayoniga o‘quvchilarini jalg qila oladi:

- ✓ mavzuli darslar tashkil etish;
- ✓ o‘quv loyihasi ustida ishlashda ijodiy guruhlarni tashkil etish;
- ✓ talabalar portfoliosini shakllantirish;
- ✓ jamoada yuzaga kelgan munozarali masalalarni muhokama qilish va muhokamani tashkil etish;
- ✓ ta’lim resurslarini yaratish.

Zamonaviy pedagog uchun ta’lim jarayonida paydo bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lish uning statusini oshirib boradi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonini yengillashtiruvchi turli platformalar mavjud: Google classroom, Moodle, Blackboard, Canvas kabi mashxur platformalar orqali o‘qituvchi har bir talabasini bemalol alohida kuzatishi va uning rivojlanish bosqichlarini kuzatib borishi mumkin, Shuningdek, Kahoot, Bamboozle, Edulastic platformalari orqali interactive o‘yin va topshiriqlarni osonlik bilan yaratish va uni dars davomida bemalol foydalanish mumkin.

Umuman olganda, ta’lim jarayonini har qanday usulda rivojlantirish pedagogning shaxsiy va ilmiy tajribalariga asoslanadi. Shunday ekan pedagogika sohasida innovatsion yangiliklarni doimiy kuzatib boorish pedagogning muhim vazifalaridan biridir. Zero, ertangi kun yaratuvchilarining hayotini yaxshilash pedagog tarbiyasini olayotgan yoshlar qo‘lida.

**Foydalaniman axborot resurslari va adabiyotlar:**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5193564>
2. S.Y. Ashurova, Importance of interactive teaching methods in professional education, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019, ISSN 2056-5852.
3. Klimenko, T.K. Innovative education as a factor in the formation of a future teacher. Synopsis of dissertation. Khabarovsk, 2000.
4. Bychkov, A.V. Innovative Culture / A. V. Bychkov // Profile School. 2005. №6.
5. Alekseeva L. N. Innovative technologies as a resource of experiment / L. N. Alekseeva // Teacher. 2004. № 3. article 78.